INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №10 (2026). OCTOBER
innovativepublication.uz

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Yaxyoyev Zikrulloh Yaxyo o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 60410300 – Soliqlar va soliqqa tortish ta’lim yo‘nalishi talabasi
ya.zikrulloh@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4736-9717
Tel: +99888 825 5995

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida soliq auditini takomillashtirishning nazariy, huquqiy va amaliy masalalari tadqiq etilgan. Soliq auditining soliq nazoratidagi o‘rni, xavfga asoslangan tanlash tizimi hamda soliq auditlari natijalarining samaradorligi Davlat soliq xizmatining 2025-yil yanvar–dekabr oylaridagi rasmiy ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Aniqlangan summalarning sohalar kesimida taqsimlanishi, soliq bazasining yashirilganlik holatlari hamda aniqlangan majburiyatlarning undirilish darajasi baholangan. Tadqiqot doirasida soliq auditi natijalarini baholashga yo‘naltirilgan xavfning tasdiqlanish va undirilish koeffitsiyentlari taklif etilgan. Tadqiqot yakunida soliq auditining aniqligi, natijadorligi va shaffofligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so’zlar: soliq auditi, soliq nazorati, soliq xavfi, xavfga asoslangan yondashuv, soliq bazasi, undirish darajasi, soliq ma’murchiligi, raqamli texnologiyalar.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГОВОГО АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Яхёев Зикруллох Яхё угли
Наманганского государственного университета, студент экономического факультета, направления подготовки 60410300 – «Налоги и налогообложение»
E-mail: ya.zikrulloh@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4736-9717
Tel: +99888 825 5995

Аннотация. В статье исследуются теоретические, правовые и практические аспекты совершенствования налогового аудита в Республике Узбекистан. На основе официальных данных Государственной налоговой службы за январь–декабрь 2025 года проанализированы охват налоговых аудитов, результативность системы отбора на основе анализа риска, отраслевая структура

выявленных сумм, случаи сокрытия налоговой базы и уровень взыскания доначисленных обязательств. Предложены коэффициенты подтверждаемости налогового риска и уровня взыскания. Разработаны рекомендации по повышению точности, результативности и прозрачности налогового аудита.
Ключевые слова: налоговый аудит, налоговый контроль, налоговый риск, налоговая база, уровень взыскания, налоговое администрирование, цифровые технологии.

ISSUES OF IMPROVING TAX AUDIT IN UZBEKISTAN

Yakhyoev Zikrulloh Yakhyo ogli
Student, Faculty of Economics,
Namangan State University
Email: ya.zikrulloh@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4736-9717
Tel: +998 88 825 59 95

Abstract. This article examines the theoretical, legal and practical issues of improving tax audit in Uzbekistan. Based on the official data of the State Tax Service for January–December 2025, it analyses the coverage of tax audits, the effectiveness of risk-based selection, the sectoral structure of the amounts identified, cases of concealed tax base and the collection rate of the assessed liabilities. Coefficients of tax risk confirmation and of collection are proposed. Practical recommendations are provided for improving the accuracy, effectiveness and transparency of tax audit.
Keywords: tax audit, tax control, tax risk, tax base, collection rate, tax administration, digital technologies.

KIRISH

Davlat budjeti daromadlarining barqarorligi ko‘p jihatdan soliq majburiyatlarining to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishiga bog‘liq. Shu sababli soliq nazorati, xususan, soliq auditi soliq ma’murchiligining eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning raqamlashishi, xo‘jalik operatsiyalarining elektron shaklda rasmiylashtirilishi va ma’lumotlar tahlilining kengayishi soliq auditini tashkil etishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq tekshiruvlari kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi shakllarida amalga oshirilishi

belgilangan [1]. Ushbu shakllar ichida soliq auditi belgilangan davr uchun soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblanishi hamda to‘lanishini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgani bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, soliq auditi soliq to‘lovchining faoliyatiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan nazorat shakllaridan biri bo‘lgani sababli uning asoslanganligi, aniqligi va qonuniyligi alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda soliq nazoratida xavfga asoslangan yondashuv keng joriy etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarorida soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni aniqlash hamda soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi belgilangan [2]. Bu yondashuv tekshiruvlarni ommaviy tarzda emas, balki soliq xavfi yuqori bo‘lgan subyektlar bo‘yicha maqsadli o‘tkazishga imkon beradi.

Shunga qaramay, soliq auditining samaradorligini faqat aniqlangan qo‘shimcha summalar hajmi bilan baholash yetarli emas. Aniqlangan majburiyatlarning qanchasi budjetga haqiqatan ham tushgani, xavf tahlili natijalarining audit davomida qay darajada tasdiqlangani hamda auditlar qaysi sohalar va qoidabuzarlik shakllariga qaratilgani ham muhim ko‘rsatkichlardir. Mazkur masalalarning yetarlicha o‘rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda soliq auditi natijalarini tahlil qilish orqali uning samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari soliq auditining huquqiy va nazariy asoslarini o‘rganish, 2025-yil yanvar–dekabr oylaridagi soliq auditlari natijalarini sohalar va qoidabuzarlik shakllari kesimida tahlil qilish, aniqlangan summalarning undirilish darajasini baholash hamda soliq auditini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq nazorati va soliq auditi samaradorligi masalasi iqtisodiy adabiyotlarda soliqdan bo‘yin tovlash omillari, soliqqa ixtiyoriy rioya etish va nazoratning iqtisodiy oqibatlari bilan bog‘liq holda o’rganiladi.

M.G.Allingham va A.Sandmo tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy modelda soliq to‘lovchining qonunchilikka rioya etish qarori qoidabuzarlikning aniqlanish ehtimoli va qo‘llaniladigan jarima miqdoriga bog‘liq holda tushuntiriladi [3]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, tekshiruvga tanlanish ehtimolining oshishi va nazoratning aniqligi soliq intizomiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, nazoratning faqat jazolashga asoslangan mexanizmlari soliqqa rioya etishning barcha omillarini tushuntirib bera olmaydi. E.Kirchler, E.Hoelzl va I.Wahl tadqiqotida majburiy va ixtiyoriy rioya etish o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqilib, soliq to‘lovchilarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchi hamda nazorat jarayonining adolatliligi muhim omil sifatida ko‘rsatilgan [4]. Bu soliq auditini tashkil etishda nafaqat qat’iylik, balki asoslilik va ochiqlik talab etilishini bildiradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) Tax Administration 2025 hisobotida soliq organlari faoliyatida ma’lumotlar tahlilidan foydalanish, xavfni baholash va soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni kuchaytirish amaliyotining kengayib borayotgani ko‘rsatilgan [5]. Xalqaro tajriba tekshiruvlarni xavf darajasiga qarab tanlash resurslardan oqilona foydalanish imkonini berishini ko‘rsatadi. Biroq bunday tizimning samaradorligi ma’lumotlar sifati va qaror qabul qilish jarayonining qonuniyligiga bog‘liq.

O‘zbekiston sharoitida soliq nazoratining huquqiy asoslari Soliq kodeksida, xavfni boshqarish tartibi esa Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorida belgilangan [1; 2]. Davlat soliq xizmati tomonidan e’lon qilinayotgan davriy natijalar soliq auditining amaldagi holatini baholash imkonini beradi [6].

Mavjud manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliq auditini takomillashtirish masalasi bir tomondan nazorat qamrovi va xavfni aniqlash aniqligi, ikkinchi tomondan esa aniqlangan majburiyatlarning undirilishi hamda soliq to‘lovchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqot soliq auditi natijalarini miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida baholashga yo‘naltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik guruhlash, nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblash va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti O‘zbekiston Respublikasida soliq auditini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti soliq auditi natijalarining samaradorligini belgilovchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tahlil uchun Davlat soliq xizmatining 2025-yil yanvar–dekabr oylarida o‘tkazilgan soliq auditlari natijalariga oid rasmiy ma’lumotlari asos qilib olindi [6]. Ushbu ma’lumotlar mlrd so‘mda keltirilgan bo‘lib, ular o‘tkazilgan auditlar soni, aniqlangan summalar, ularning sohalar kesimidagi taqsimoti hamda soliq bazasi yashirilganligi holatlarini qamrab oladi. Nisbiy ko‘rsatkichlar (ulushlar, o‘rtacha qiymatlar va koeffitsiyentlar) muallif tomonidan mazkur ma’lumotlar asosida hisoblandi.

Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, foydalanilgan ma’lumotlar yig‘ma ko‘rinishda bo‘lib, alohida auditlar bo‘yicha qarorlar, e’tirozlar va sud natijalarini o‘z ichiga olmaydi. Shu sababli olingan xulosalar umumiy tendensiyalarni ifodalaydi va alohida soliq to‘lovchining holatini baholash uchun asos bo‘la olmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Davlat soliq xizmatining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida soliq to‘lovchilar soni 567 746 tani tashkil etgan, 3 481 ta soliq auditi o‘tkazilgan. Bu soliq to‘lovchilar umumiy sonining atigi 0,6 foizini tashkil etadi. Bunday past qamrov auditlar tasodifiy emas, balki soliq xavfi darajasiga qarab tanlanishini taqozo etadi. Soliq auditlarining asosiy natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

2025-yil yanvar–dekabr oylarida o‘tkazilgan soliq auditlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Miqdori	Nisbiy ko‘rsatkich
Soliq to‘lovchilar soni	567 746 ta	–
O‘tkazilgan soliq auditlari soni	3 481 ta	Soliq to‘lovchilar sonining 0,6%
“Xavfni tahlil qilish” dasturida aniqlangan soliq xavfi summasi	11 760,0 mlrd so‘m	–
Soliq auditlarida aniqlangan summa	13 046,3 mlrd so‘m	Xavf summasining 110,9%
To‘lov muddati kelgan summa	9 654,1 mlrd so‘m	Aniqlangan summaning 74,0%
To‘lab berilgan summa	3 908,2 mlrd so‘m	To‘lov muddati kelgan summaning 40,5%

1-jadvaldan ko‘rinadiki, “Xavfni tahlil qilish” dasturida 11 760,0 mlrd so‘m soliq xavfi aniqlangan bo‘lib, soliq auditlari natijasida 13 046,3 mlrd so‘m aniqlangan. Aniqlangan summa xavf summasidan 1 286,3 mlrd so‘m yoki 10,9 foizga

yuqori. Bu xavfni tahlil qilish tizimi orqali tanlangan subyektlarda soliq xavfi audit jarayonida tasdiqlanganini ko‘rsatishi mumkin. Biroq ikki ko‘rsatkichning hisoblash metodikasi va davri bir xil bo‘lmasligi ehtimoli sababli, ularni taqqoslash dastlabki xarakterga ega.

Xavf tahlili natijalarining audit davomida tasdiqlanish darajasini baholash uchun quyidagi koeffitsiyentni qo‘llash taklif etiladi (1):

$$K_t = \frac{S_a}{S_x} \times 100\%$$

Kt – xavfning tasdiqlanish koeffitsiyenti;
Sa – soliq auditlarida aniqlangan summa;
Sx “–Xavfni tahlil qilish” dasturida aniqlangan soliq xavfi summasi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, Kt = 13 046,3 / 11 760,0 × 100% = 110,9% ni tashkil etadi. Koeffitsiyentning 100 foizdan yuqori bo‘lishi auditlar xavf tahlilida belgilangan summani to‘liq qamrab olganini, ayrim holatlarda esa qo‘shimcha majburiyatlar aniqlanganini bildiradi. Biroq bu ko‘rsatkich xavf tahlili orqali aniqlanmay qolgan holatlarni hisobga olmaganligi sababli tizimning umumiy aniqligini to‘liq ifodalamaydi.

Soliq auditi samaradorligining ikkinchi muhim jihati aniqlangan majburiyatlarning budjetga undirilishidir. Aniqlangan 13 046,3 mlrd so‘mning 9 654,1 mlrd so‘mi bo‘yicha to‘lov muddati kelgan (74,0 foiz), shundan 3 908,2 mlrd so‘m to‘lab berilgan. Bu to‘lov muddati kelgan summaning 40,5 foizini, aniqlangan umumiy summaning esa taxminan 30,0 foizini tashkil etadi. Demak, to‘lov muddati kelgan 5 745,9 mlrd so‘m (59,5 foiz) hali to‘lanmagan. Undirilish darajasini quyidagi koeffitsiyent orqali baholash taklif etiladi (2):

$$K_u = \frac{S_t}{S_m} \times 100\%$$

Bu yerda:
Ku – undirilish darajasi;
St – to‘lab berilgan summa;
Sm – to‘lov muddati kelgan summa.

Ku = 3 908,2 / 9 654,1 × 100% = 40,5% bo‘lib, bu ko‘rsatkichning pastligi aniqlangan majburiyatlarning bir qismi e’tirozlar, bo‘lib to‘lash, soliq to‘lovchining moliyaviy ahvoli yoki baholashning yetarli asoslanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Aniq sabablarni aniqlash alohida statistik tahlilni talab etadi. Shu sababli soliq auditi samaradorligini baholashda faqat aniqlangan summa emas, balki uning undirilish darajasi ham asosiy mezon bo‘lishi lozim.

Aniqlangan summalarning sohalar kesimida taqsimlanishi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Soliq auditlarida sohalar kesimida aniqlangan summalar

Soha	Aniqlangan summa, mlrd so‘m	Ulushi, %
Savdo va umumovqatlanish	7 914,0	60,7
Qurilish	1 466,7	11,2
Ishlab chiqarish	1 304,2	10,0
Xizmat ko‘rsatish	863,8	6,6
Qishloq xo‘jaligi	683,7	5,2
Transport	319,7	2,5
Boshqa sohalar	494,3	3,8
Jami	**13 046,3**	**100,0**

2-jadvaldan ko‘rinadiki, aniqlangan summaning 60,7 foizi (7 914,0 mlrd so‘m) savdo va umumovqatlanish sohasiga to‘g‘ri kelgan. Qurilish (11,2 foiz) va ishlab chiqarish (10,0 foiz) bilan birgalikda uchta soha umumiy summaning 81,9 foizini tashkil etgan. Transport (2,5 foiz) va qishloq xo‘jaligi (5,2 foiz) ulushi nisbatan past. Bu auditlarning tovar aylanmasi yuqori bo‘lgan sohalarga qaratilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim sohaning yuqori ulushi o‘sha sohada faoliyat yurituvchi subyektlar sonining ko‘pligi bilan ham izohlanishi mumkin. Sohalar kesimida audit o‘tkazilgan subyektlar soni ma’lum bo‘lmagani sababli, bir auditga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha summani sohalar bo‘yicha baholash imkoni cheklangan.

Soliq auditlarining muhim natijalaridan biri soliq bazasining yashirilganlik holatlarini aniqlashdir. Davlat soliq xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 1 688 ta subyektda 20 632,1 mlrd so‘m soliq bazasi yashirilganligi aniqlangan va 4 126,4 mlrd so‘m jarima qo‘llanilgan. Qo‘llanilgan jarima yashirilgan soliq bazasining 20,0 foizini tashkil etadi. Agar har bir audit alohida soliq to‘lovchiga nisbatan o‘tkazilgan deb hisoblansa, yashirilganlik holatlari auditlarning taxminan 48,5 foizida aniqlangan. Shuni ta’kidlash lozimki, yashirilgan soliq bazasi soliq summasidan mazmunan farq qiladi, shu sababli 20 632,1 mlrd so‘mni 1-jadvaldagi aniqlangan summa bilan bevosita solishtirish to‘g‘ri

emas. Yashirilgan soliq bazasining shakllar bo‘yicha taqsimlanishi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Soliq bazasi yashirilganligining shakllari bo‘yicha taqsimlanishi

Qoidabuzarlik shakli	Subyektlar soni, ta	Summa, mlrd so‘m	Ulushi, %	Bir subyektga o‘rtacha, mlrd so‘m
Realizatsiya qilingan tovarlar summasini ko‘rsatmaslik (kamaytirib ko‘rsatish)	615	6 928,3	33,6	11,27
Tovarlarning omborlarda yoki realizatsiya joyida mavjud emasligi	531	6 919,7	33,5	13,03
Kirim qilinmagan tovarlarni saqlaganlik va realizatsiya qilganlik	542	6 784,1	32,9	12,52
Jami	**1 688**	**20 632,1**	**100,0**	**12,22**

3-jadvaldan ko‘rinadiki, uchala qoidabuzarlik shakli deyarli teng ulushga ega (32,9–33,6 foiz). Ularning barchasi tovar-moddiy zaxiralar hisobi va realizatsiya ma’lumotlarining haqiqiy holatga mos kelmasligi bilan bog‘liq. Eng ko‘p subyektda (615 ta) realizatsiya summasi kamaytirib ko‘rsatilgan, bir subyektga o‘rtacha eng yuqori summa (13,03 mlrd so‘m) esa tovarlarning omborlarda yoki realizatsiya joyida mavjud emasligi holatiga to‘g‘ri kelgan. Bu tovar zaxiralarini elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va tovar harakatiga oid boshqa elektron ma’lumotlar bilan o‘zaro solishtirish orqali oldindan aniqlash imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari soliq auditi tizimida bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchi muammo auditlar qamrovining cheklanganligi (0,6 foiz) bilan bog‘liq. Bunday sharoitda tanlash aniqligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, xavf tahlilining sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat natijadorligini belgilaydi. Ikkinchi muammo

aniqlangan majburiyatlarning undirilish darajasi pastligi (40,5 foiz) bilan bog‘liq. Uchinchi muammo qoidabuzarliklarning asosan tovar-moddiy zaxiralar hisobi bilan bog‘liq holda savdo va umumovqatlanish sohasida to‘planganidir. To‘rtinchi muammo audit natijalarini baholashda aniqlangan summaning o‘zi asosiy ko‘rsatkich sifatida qo‘llanilishi, xavfning tasdiqlanish va undirilish darajasi kabi ko‘rsatkichlarning esa yetarlicha e’tiborga olinmasligidir.

Shu bilan birga, xavf tahlili yoki elektron ma’lumotlardagi har qanday tafovutni avtomatik ravishda soliq huquqbuzarligi deb baholash to‘g‘ri emas. Audit natijalari asosli, hujjatlar bilan tasdiqlangan va soliq to‘lovchi uchun tushunarli bo‘lishi, uning e’tiroz bildirish huquqi to‘liq ta’minlanishi zarur. Aks holda aniqlangan summalarning bir qismi keyinchalik bekor qilinishi va undirilish darajasining yanada pasayishi mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun auditga tanlash tizimini takomillashtirish, tovar harakati va zaxiralar bo‘yicha elektron ma’lumotlardan foydalanishni kengaytirish, undirish mexanizmlarini kuchaytirish hamda audit samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasida soliq auditini takomillashtirish soliq majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash, nazorat resurslaridan oqilona foydalanish va soliq to‘lovchilar huquqlarini himoya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqotda 2025-yil yanvar–dekabr oylarida 3 481 ta soliq auditi o‘tkazilgani, bu soliq to‘lovchilar sonining 0,6 foizini tashkil etgani, auditlarda 13 046,3 mlrd so‘m aniqlangani, biroq to‘lov muddati kelgan summaning faqat 40,5 foizi to‘lab berilgani asoslandi. Aniqlangan summaning 60,7 foizi savdo va umumovqatlanish sohasiga, soliq bazasi yashirilganligi holatlari esa asosan tovar-moddiy zaxiralar hisobi va realizatsiya ma’lumotlariga to‘g‘ri kelgan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, soliq auditiga tanlash tizimini takomillashtirish zarur. Auditlar qamrovi cheklangan sharoitda xavf tahlili natijalarini muntazam yangilash, xavf indikatorlarini sohalar va faoliyat turlari bo‘yicha farqlash hamda audit natijalari asosida ularni qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, soliq auditi samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini kengaytirish taklif etiladi. Aniqlangan summadan tashqari xavfning tasdiqlanish koeffitsiyenti (Kt) va undirilish darajasi (Ku) kabi ko‘rsatkichlarni rasmiy hisobotlarda muntazam e’lon qilish nazorat natijadorligini baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, aniqlangan majburiyatlarning undirilish darajasini oshirish choralarini kuchaytirish zarur. Buning uchun audit natijalari bo‘yicha qarorlarning asoslanganligini oshirish, to‘lov muddati kelgan majburiyatlar ustidan muntazam monitoring yuritish hamda soliq to‘lovchilar bilan oldindan tushuntirish ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, tovar-moddiy zaxiralar bilan bog‘liq qoidabuzarliklarning oldini olish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanish lozim. Elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va tovar harakatiga oid boshqa elektron ma’lumotlarni zaxiralar hisobi bilan o‘zaro solishtirish orqali xavf alomatlarini audit boshlanishidan oldin aniqlash mumkin.

Beshinchidan, sohalar kesimidagi statistik ma’lumotlarning to‘liqligini ta’minlash taklif etiladi. Har bir soha bo‘yicha audit o‘tkazilgan subyektlar soni, o‘rtacha aniqlangan summa va undirilish darajasini e’lon qilish tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun tahliliy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Oltinchidan, soliq to‘lovchilar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash zarur. Audit natijalari soliq to‘lovchi uchun tushunarli bo‘lishi, aniqlangan tafovutlar sabablari tushuntirilishi va e’tiroz bildirish imkoniyatlari to‘liq ta’minlanishi lozim.

Umuman olganda, soliq auditini takomillashtirish nazorat qamrovini kengaytirish bilan emas, balki tanlash aniqligini, natijalarning asoslanganligini va undirilish darajasini oshirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Taklif etilgan koeffitsiyentlar soliq auditi samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asosi sifatida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr. Amaldagi tahrir. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori.

3. Allingham, M. G., & Sandmo, A. (1972). Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis. Journal of Public Economics, 1(3–4), 323–338.

4. Kirchler, E., Hoelzl, E., & Wahl, I. (2008). Enforced versus Voluntary Tax Compliance: The “Slippery Slope” Framework. Journal of Economic Psychology, 29(2), 210–225.

5. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT 2025). Tax Administration 2025: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. Paris: OECD Publishing.

6. O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati. 2025-yil yanvar–dekabr oylarida o‘tkazilgan soliq auditlari natijalari (mlrd so‘mda). Rasmiy axborot (infografika).